

BAXSHI JO'RA ESHMIRZA VARIANTIDAGI "MALLA SAVDOGAR" DOSTONIDA QIRQ CHILTON OBRAZI VA UNING RAMZIY MA'NOSI

Achilova Zuxra Qurbonovna

Qarshi davlat universiteti Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0004-3307-111X, e-mail: achilovaf@gmail.com

tel.: (+99897) 311-87-18, (+99477) 340-80-94

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20963477>

Annotasiya. Maqolada Go'ro'g'li turkumiga mansub "Malla savdogar" dostonidagi qirq chilton timsolining badiiy-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qirq chiltonlarning Avazxon homiysi, g'oyibiy madadkor va ilohiy himoya kuchi sifatida talqin etilishi xalqning mifologik, diniy hamda tasavvufiy qarashlari bilan bog'liq holda yoritiladi. Shuningdek, "qirq" raqamining turkiy xalqlar folklori, xalq e'tiqodlari, urf-odatlar va tasavvuf adabiyotidagi ramziy ma'nolari qiyosiy manbalar asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijasida qirq chilton timsolining epik qahramonni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi, uning ilohiy tanlanganligini ifodalovchi hamda xalqning qadimiy mifologik tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim poetik unsur ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: qirq chilton, qirq raqami, mifologik tasavvur, folklor, Go'ro'g'li turkumi, "Malla savdogar" dostoni, Avazxon, g'oyibiy homiy kuchlar, tasavvuf, ramziy ma'no, epik qahramon, xalq e'tiqodlari, poetik funktsiya, Hizr obrazi, turkiy xalqlar og'zaki ijodi.

Аннотация. В статье анализируются художественно-функциональные особенности образа сорока чильтанов в дастане «Малла савдогар», входящем в цикл «Гёроглы». В произведении сорок чильтанов рассматриваются как покровители Авазхана, сверхъестественные помощники и носители божественной защитной силы; данная интерпретация раскрывается в связи с мифологическими, религиозными и суфийскими представлениями народа. Кроме того, на основе сравнительного анализа источников исследуются символические значения числа сорок в фольклоре, народных верованиях, обычаях и суфийской литературе тюркских народов. В результате исследования обосновывается, что образ сорока чильтанов является важным поэтическим элементом, обеспечивающим духовную поддержку эпическому герою, выражающим его божественную избранность и отражающим древние мифологические представления народа.

Ключевые слова: сорок чильтанов, число сорок, мифологические представления, фольклор, цикл «Гёроглы», дастан «Малла савдогар», Авазхан, сверхъестественные силы-покровители, суфизм, символическое значение, эпический герой, народные верования, поэтическая функция, образ Хизра, устное творчество тюркских народов.

Abstract. This article analyzes the artistic and functional characteristics of the image of the Forty Chiltans in "Malla Savdogar", an epic belonging to the *Gorogly* cycle. The study examines the portrayal of the Forty Chiltans as the patrons of Avazkhan, invisible helpers, and a source of divine protection, interpreting these functions in connection with the mythological, religious, and Sufi beliefs of the people. Furthermore, the symbolic meanings of the number forty in the folklore, folk beliefs, customs, and Sufi literature of Turkic peoples are investigated through a comparative analysis of relevant sources. The findings demonstrate that the image of the Forty Chiltans constitutes an important poetic element that provides spiritual support to

the epic hero, signifies his divine chosenness, and reflects the ancient mythological worldview of the people.

Keywords: Forty Chiltans, the number forty, mythological worldview, folklore, Gorogly cycle, “Malla Savdogar” epic, Avazkhan, invisible patron forces, Sufism, symbolic meaning, epic hero, folk beliefs, poetic function, the image of Khidr, oral literature of Turkic peoples.

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqning qadimiy mifologik tasavvurlari, diniy-e‘tiqodiy qarashlari hamda badiiy tafakkurini o‘zida mujassam etgan muhim ma‘naviy manbalardan hisoblanadi. Xalq dostonlarida uchraydigan g‘oyibiy homiy kuchlar, muqaddas raqamlar va ramziy obrazlar epik qahramonlarning ruhiy-ma‘naviy olamini yoritishda muhim badiiy vazifani bajaradi. Ana shunday motivlardan biri qirq chilton timsoli bo‘lib, u turkiy xalqlar folklorida qahramonni himoya qiluvchi, unga ilohiy madad beruvchi g‘oyibiy kuch sifatida talqin etiladi.

Go‘ro‘g‘li turkumiga mansub “Malla savdogar” dostonida qirq chilton obrazi Avazxonning epik homiysi sifatida namoyon bo‘lib, xalqning mifologik, diniy va tasavvufiy qarashlari bilan uzviy bog‘langan holda badiiy ifodasini topgan. Mazkur timsol orqali qahramonning ilohiy himoya ostida ekani, uning kelajakdagi sinov va kurashlarga ma‘naviy jihatdan tayyorlanishi g‘oyasi ilgari suriladi.

Ushbu maqolada “Malla savdogar” dostonidagi qirq chilton timsolining badiiy-funksional xususiyatlari, “qirq” raqamining folklor, mifologik va tasavvufiy talqinlari hamda xalq tafakkuridagi ramziy ma‘nolari qiyosiy-tahliliy asosda yoritiladi. Shuningdek, qirq chilton obrazining epik homiy kuch sifatidagi o‘rni va uning turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi an‘anaviy talqinlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida mifologik tasavvurlar, ramziy sonlar hamda g‘oyibiy homiy kuchlar bilan bog‘liq motivlar alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “qirq” raqami xalq tafakkurida ko‘plik, mukammallik, sinov, himoya va ma‘naviy kamolot ramzi sifatida qadimdan shakllanib kelgan. Mazkur ramz turli dostonlar, afsona va rivoyatlar tarkibida muhim poetik unsur sifatida qo‘llanib, qahramonning ruhiy tayanchi hamda ilohiy madad timsoli vazifasini bajaradi.

Go‘ro‘g‘li turkumiga mansub “Malla savdogar” dostonida ham qirq chilton obrazi ana shunday mifologik va tasavvufiy qarashlar asosida talqin etilgan. Dostonda qirq chiltonlar Avazxonning homiysi, g‘oyibdan yordam beruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Xususan, Avazga duo berilishi, uning yovdan va balodan asralishi bilan bog‘liq epizodlarda qirq chilton timsoli xalqning qadimiy e‘tiqodiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

“Malla savdogar” dostonidagi qirq chilton timsolining badiiy-funksional vazifasi, “qirq” raqamining mifologik, diniy va folkloriy talqinlari hamda xalq tafakkuridagi ramziy ma‘nolari qiyosiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, qirq raqamining turkiy xalqlar og‘zaki ijodi, tasavvuf adabiyoti va xalq urf-odatlaridagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi.

Ko‘pgina dostonlarda qahramonga qirq chilton ham homiylik qiladi. Qahramonning: – G‘oyib eran pirim, qo‘llang qirq chilton, deyishi bunga misol bo‘la oladi. O‘rta Osiyo xalqlari orasida chiltonlar haqida ma‘lum darajada bir-biriga qarama-qarshi ikki xil tasavvur borligi ko‘rinadi. Birinchidan, xalq orasida chiltonlar qirq kishidan iborat bo‘ladi, degan qarash keng tarqalgan. Ular ruhiy kamolotga etishgan, eng insofli, adolatli kishilardan tanlanadi. Beqiyos bilimga, g‘ayritabiiy qudratga, fidoyilikka ega bu kishilar ko‘pincha oddiy, faqirona hayot kechiradilar. Ba‘zilar ularni tunda bir joyga yig‘ilishadi, deyishadi. Chiltonlarning vazifasi

odamlarni yovuz ruhlardan himoyalash, lozim topilsa davolash, tarbiyat etish, deb anglanadi.

[1.35-b.]

“Malla savdogar” dostonini baxshi Jo’ra Eshmirza o’g’li variantida Avaz bilan bog’liq syujetda qirq chilton timsollari g’oyibdan qo’llab -quvvatlovchi, vositachi madadkor kuch sifatida bayon qilinadi. Go’ro’g’li turkumidagi “Malla savdogar” dostoni Chambil yurtining madhi, shuningdek Go’ro’g’li Buldur qassobni o’g’li Avazxonni olti yoshida Xunxor mamalakatidan farzandlikka olib kelgani bilan voqelar debochasi boshlanadi. Dostonda Avazxon “ ...sakkiz yoshida maktabga olib borib qo’ygan , to’qqizida dovotning qalamini to’g’irlab kalimai sharifni ko’ngliga bitib olgan, o’n yoshida ot minmoqni talab qilgan, o’n birida Go’ro’g’li Sulduz tog’iga birga olib chiqqan. Sulduz tog’ining ustida yakka archa bor ekan, shu archaning tagiga makon qildi qirq chiltonlar, Hizr bobo ham keldi. Bu kecha shular bilan suhbatda bo’ldi. Ertasi tong otdi, so’fi azon aytdi, darveshlar namozdan qaytdi, qo’shqo’llab fotihani betga tortdi. Kun ham chiqib choshkaga yetdi. Go’ro’g’li qirq chiltandan duo tiladi. Qirq chilton qo’lini duoga ochib, Avazning haqiga miltiq o’qi tegsa kor qilmaydigan duoni tiladilar.

[2.296-b.] Hizir bobo marhamat qilib, joylaridan turib, Avazning kamarini beliga bug’dilar.”

[2.296-b.]

Malla savdogar dostonining Jo’ra Eshmirza o’g’li variantida Avaz obrazi bilan bog’liq syujetda qirq chilton va Hizr timsollari epik homiy kuch sifatida talqin etiladi. Keltirilgan parchada Avazning yoshma-yosh kamol topishi an’anaviy qahramon holi axbori shaklida bayon qilinib, uning oddiy farzand emas, balki ilohiy nazorat va himoyaga sazovor bahodir ekanligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, Sulduz tog’idagi archa ostida qirq chiltonlarning makon tutishi hamda Hizr boboning kelishi xalq epik tafakkuridagi muqaddas makon va pirlar kultining ifodasidir.

Matnda qirq chiltonlar g’oyibiy madadkor kuch sifatida namoyon bo’lib, Avazni kelajakdagi sinovlarga tayyorlovchi vositachi vazifasini bajaradi. Ularning Avaz haqiga **“miltiq o’qi kor qilmas”** mazmunidagi duosi qahramonning ilohiy himoya ostidagi epik shaxs ekanligini bildiradi.

Dostonda keltirilgan g’ayib kuchlari (ko ‘makchi, vositachi) Qirq chilton timsollarini nega qirq raqamiga urg’u berilishi, qirq va chilton so’zlariga bog’liq turfa qarashdagi manbalar bilan qiyosiy o’rganish muhim hisoblanadi.

Osiyo va Sharq tafakkuriyatida **“qirq”** va **“chilla”** so’zlari bilan bog’liq asotiriy, tasavvufiy, urf-odatlar, irim-sirimlar mavjudligi borasida turlicha qarashlar yuzaga kelgan.

Qirq -sanoq son. Qirq (40) – bu o’ttiz to’qqizdan keyin, qirq bir(dan) oldin keladigan natural son. Raqamli ko’rinishi: 40 Rim raqamida: XL . Xususiyati: 4 ta o’nlikdan iborat juft son. Qirq chilton haqida (*Chilton, chilton (f.-qirq kishi, qirqta ruh)* – diniy tasavvurlarga ko’ra, g’ayritabiiy kuchga ega bo’lgan afsonaviy 40 ta ruh. **[3. 302-b.]**

Chilton (Chilton) – (qirq kishi, qirqta ruh, diniy) diniy tasavvurlarga ko’ra g’ayritabiiy kuchga ega bo’lgan, ko ‘zga ko ‘rinmaydigan, bir-biridan ajralmaydigan afsonaviy qirq ruh . **[4.485-b.]**

Chilton, chilton - diniy tasavvurlarga ko’ra, g’ayritabiiy kuchga ega bo’lgan afsonaviy 40 ta ruh. Rivoyatlarda Chiltonlar odamlar ko’ziga ko’rinmaydi, ba’zan ular orasida odam qiyofasida yashaydi, deb talqin etiladi. Ular, odatda, mozor va odamlar bo’lmaydigan joylarda uchraydi, deb tasavvur qilinadi. Turli ofatlardan saqlanish, kasaldan qutulish maqsadida Chiltonlarga atab pilikdan yasalgan 40 chiroq yoqish, ularga bag’ishlab turli taomlar pishirish odati bo’lgan. Taomlar “Chiltonoshi” deb atalgan va ular shu marosim munosabati bilan

to'plangan xotin-qizlarga tarqatilgan. Hozirgi vaqtda Chiltonlar va ular bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar deyarli yo'qolib ketgan. **[5. 408-b.]**

...Nechun aynan qirq. Buning sababi bor. Ali ibn Abu Tolibdan rivoyat qilingan hadisda Muhammad alayhissalom "Abdollar Shomdan bo'ladilar. Ular qirq kishidir. Har qachonki, ulardan biri o'lsa, Alloh taolo uni boshqasi bilan almashtiradi", deb marhamat qiladilar (Imom Ahmad ibn Hanbal "Musnad" kitobidan). Hadisda aytilgan abdollar xalq orasida chilton nomi bilan ataladilar.

Abdulqodir Jiyloniy hazratlari o'zlarining Futuhul g'ayb asarlarida: "Abdol siddiqlardan quyi va valiylardan yuqorida turadigan maqomdir", deb aytadilar. Bundan anglashiladiki, abdollar — chiltonlar Allohning xos qullari, insonlarning azizlari, g'ayb olami sirlarini Allohning izni bilan U xohlagan darajada biladigan orif insonlardir. **[6.327-328-b.]**

Xalq tafakkurida "Qirq" va "chilton (an)" so'zlari bilan bog'liq turli qarashlar shaklanib kelganini ko'rib chiqshimiz mumkin.

Iboralar: "qirq yil qirg'in bo'lsa ham, umridan (rizqidan) bori yashaydi", "choponi qirq yamoq bo'lgan", "qirq yosh-qirchilama yosh", "qirqqa kirding, o'tin bo'lding", "qirqqa kirmay qiyildi", "ayolni qirqta joni bor", "qirq kecha-kunduzlik to'y", "bir ayolni makri qirq eshakka yuk", "qirq yil qirg'in bo'lsa ham, rizqidan bor yashaydi";

Irim-sirimlar: qirq kunlik chilla (yangi tug'ilgan chaqaloq, yangi turmush qurgan kelin-kuyov qirq kun chilla saqlashgan), tabiat bilan bog'liq qirq kunlik chilla :qish chillasi (25-dekabrdan-5-fervralgacha), yoz chillasi (25-iyundan 5-avgustgacha); qirq kunlik aza;

Narsa-buyum va harakatga nisbat: qirq quloq qozon, qirq quloch, qirq kokil soch (qirq shoda kokil, qirq shokila); qirq yigitni kuchi bor;

Albatta qirq raqami bilan bog'liq chilla so'zi bor. Bu borada ham xalqni o'z qarashlari ajdoddan avlod xotirasiga qayd etilib kelingan.

Maqollar: "Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber", "Qirqiga chidagan qir biriga chidaydi", "bir yigitga qirq hunar oz";

E'tiqodiy qarashga nisbat qirq va chilla angalnamlari: Manbalarga ko'ra ko'plab madaniyatlar va dinlarda 40 raqami "o'zgars", "sinov" va "mukammalik" ramzi sifatida ifodalanadi.

Uning sehrli va muqaddas hisoblanishi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga, qadimgi Shumer va Bobil sivilizatsiyalariga borib taqaladi.

Mana bu raqam bilan bog'liq asosiy tushunchalar:

Diniy va mifologik asoslar:

- Islomda: Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga 40 yoshda vahiy kelgan. Tasavvufda "chilla" (forscha – 40 kun) tushunchasi bor – bu nafsni tarbiyalash davri.

- Xristianlik va Yahudiylikda: Nuh alayhissalom davrida to'fon 40 kun davom etgan. Muso alayhissalom Tur tog'ida 40 kun bo'lgan. Isroil xalqi sahroda 40 yil sargardon yurgan.

- Qadimgi Bobil: Bobilliklar uchun 40 raqami "Anu" xudosining raqami bo'lgan va u yulduzlar harakati (Pleyada yulduz turkumi 40 kun ko'rinmay qolishi) bilan bog'langan.

[7.vikpediya manba]

Folklor asarlarida, marosim va udumlarimizda bu son bilan aloqador xilma-xil xalq qarashlari saqlanib qolganki, bunday ramzlar bobolarimizning mifologik tasavvurlari bilan bog'liq. "Qirq" soni shartli miqdor belgisi sifatida va epik makon va zamonni ifodalovchi badiiy formulalar tarkibida ham qo'llaniladi.

[8.38-b.]

“**Qirq qiz**” – qoraqalpoq xalq qahramonlik eposi. Qoraqalpoq xalqining madaniy yodgorligi. Qurbonboy baxshi Tojiboy o‘g‘lidan yozib olingan (1939–40). Asarda tasvirlanishicha, Olloyor boyning yagona qizi Guloyim qirq dugonasi va o‘z oshiği Arslon bilan Eron shohi Nodirshoh va qalmoq xoni Surtaysha hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va gumanizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Undagi Guloyim, Oltinoy, O‘tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabi obrazlarda jasurlik, vatanga sadoqat, insoniylik, dushmanga shafqatsizlik g‘oyalari mujassamlashgan. Asarning syujet chizig‘i To‘maris, saklar malikasi Zarina haqidagi rivoyatlarga o‘xshab ketadi. Asarning qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston FA Qoraqalpog‘iston filiali kutubxonasida saqlanadi. “Qirq qiz” o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz va rus tillarida nashr qilingan. Epos haqida V.M. Jirmunskiy, Q. Maksetov, N. Dovqorayev va boshqalarning tadqiqotlari bor. Asar syujeti asosida A. Halimov “Qirq qiz” simfonik dostonini yaratgan. [9. 93-b.]

Sharq mamlakatlarida ham qirq raqami bilan bog‘liq xalqona ijod namunalari uchraydi, jumladan, arab xalqining “Ming bir kecha” turkumiga kiruvchi “Ali bobo va qirq qaroqchi” nomli ertagida ham 40 raqami orqali inson fe‘l-atvoridagi qusuqliklar ko‘rsatiladi. Qizig‘i shundaki, bu ertak to‘plamning asl qo‘lyozmalarida bo‘lmagan. Ertakni XVIII asrda fransuz olimi Antuan Gallan suriyalik hikoyago‘ydan eshitib, to‘plamga kiritgan.

Qirq qaroqchi qanday majoziy timsolni anglatadi?

Majoziy ma’noda qaroqchilar quyidagilarni anglatadi:

- Yovuzlik va ochko‘zlik: Ular mehnat qilmasdan, birovning haqini talash evaziga boylik orttiruvchi qatlam ramzi.

- Insoniy qusurlar: Qirq soni Sharq madaniyatida “ko‘plik”ni bildiradi. Qaroqchilar insonning ichidagi ko‘p sonli nafsoniy illatlar, yomon o‘y-fikrlar va vasvasalar majmuini anglatishi mumkin.

- Xavf va adolatsizlik: Ular tinch aholi hayotiga raxna soluvchi tashqi xavf va ijtimoiy adolatsizlik timsolidir.

Bu ertak o‘zbek tiliga adib Abdulla qahhor tomonida tarjima qilinib o‘zbek kitobxonlariga taqdim etilgan. [10. 3-50-b.]

Asrimizning turkiy dunyo adabiyotining ulug‘laridan qirg‘iz eli adibi Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” (“Asrga tatigulik kun”) asarida Edigey Bo‘ronni shunday tasviri keltiriladi; “Edigey Bo‘ron hikoyalari tugagach, toshchalar bilan fol ochishga o‘rinadi. Endi u doimo cho‘ntagida har biri no‘xatdday keladigan qirq bitta toshcha olib yurardi. Folbinlik – bu qadimgi usulning o‘ziga xos murakkab so‘z, atamaları bor. [11. 286-b.]

Bundan anglash mumkinki, qirq yoki qirq bir sonlari turkiy xalq orasida ramziy “madad”, “ezgulik”, “yordamchi” ma’nosida kelgan.

Solih alayhissalom qissasida Kosur ibn Ubaydni butga ximatkor qilib qo‘yilishi, u 40 yil butga xodim bo‘lishi, bir kuni shayton farishtalardan “Kosurdan bir o‘g‘il paydo bo‘lib, podshohni o‘ldirur” degan bashoratini eshitib qolishi, keyin shayton but ichiga kirib, “Kosirni zindonga solinglar, u menga yaxshi xizmat qilmayotit” deb aytishi, so‘ngra Kosur zindonda 40 yil saqlanishi bayon qilingan.

[12. 44-bet.] Bu qissadagi hodisa Kosur umrining qirq yillik sinovi edi.

Farididdin Atorning “Maniqut-tayr” asari so‘z boshida “Musibatnoma” asarini tasavvufiy mohiyatini ham 40 raqami bilan bog‘liq mantiqiy fikrlar mavjudligi haqida eslatib o‘tiladidi.

“Musibatnoma” – bu masnaviyda shoir Allohni Koinotdan izlab, oxiri o‘z qalbidan topgani borasidagi tasavvufiy g‘oyani boshqacha bir tarzda ifodalagan. Bir solik (tariqat, suluk a‘zosi) piring amri bilan ruhan (shuuriy) ko‘klarga sayohat qilib, Isrofil, Mekoil, Azroil va boshqa farishtalar hamrohligida Arsh, Kursi, Lavh, Qalam, Jannat, Jahannam, Ko‘k, Quyosh, Oy, Anosiri-arbaa (To‘rt unsur), Tog‘, Dengiz, Ma‘dan, Nabotot, Hayvonot, Qushlar, Iblis, Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Dovud, Iso, Muhammad, His, Xayol, Aql, Qalb va Jon bilan uchrashib suhbatlashadi. Ular birin-ketin husni ta‘lil ruhida javoblari bilan yo‘lchining umidini yo‘qqa chiqaradilar. Nihoyat, u izlaganini o‘z qalbidan topadi. Bu asar Pur Muhammad tarafidan “Tariqatnoma” atalib, sulton Murod II topshirig‘i bilan turkiy tilga tarjima qilingan. **[13. 4-5-b.]**

Fariduddin Attorning “Musibatnoma” asari tasavvuf adabiyotining eng chuqur falsafiy namunalaridan biri hisoblanadi. Undagi “solik” (ma‘naviy yo‘lovchi)ning 40 kunlik sayohati inson ruhining poklanish va Haqiqatni anglash bosqichlarini ifodalaydi.

Mana shu sayohatning asosiy mohiyati:

1. Sayohatning maqsadi. Solik o‘z ruhiy izzatlariga chora izlab, “Piri komil” (yo‘lboshchi) huzuriga boradi. Pir unga o‘zligini anglash uchun koinot va undagi barcha mavjudotlar bilan muloqot qilishni, ulardan “Dard” so‘rashni buyuradi.

2. Koinot bo‘ylab sayohat (Tashqi olam). Solik 40 kun davomida turli timsollar bilan uchrashadi. Har bir kunda u bitta “manzil”ga to‘xtaydi:

- **Farishtalar, Arsh, Kursi, Lavh va Qalam:** Solik samoviy kuchlardan najot so‘raydi, lekin ular ham o‘z vazifalari bilan bandligini va Haqning azamati oldida ojiz ekanliklarini aytishadi.

- **Tabiat unsurlari (Quyosh, Oy, Tog‘lar, Dengizlar):** Ular ham o‘zlarining muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunishlarini, mutloq erkin emasliklarini bildirishadi.

- **Payg‘ambarlar:** Solik Odam alayhissalomdan boshlab barcha buyuk payg‘ambarlar huzuriga boradi. Har bir payg‘ambar unga o‘z hayoti davomida chekkan mashaqqatlari va Allohga bo‘lgan ishqini so‘zlab beradi.

3. Sayohatning yakuni (Ichki olam). Sayohatning oxirgi bosqichlarida solik tushunib yetadiki, u izlagan narsa tashqi olamda emas.

- **39-kun:** Solik o‘zining **Nafsi** bilan yuzlashadi.

- **40-kun:** Nihoyat, u o‘z **Qalbiga** qaytadi.

Pir unga shunday ta‘lim beradi: “Sen koinotni kezib chiqqaning bilan, aslida o‘z vujudingni kezding. Hamma narsa sening ichingda”. Bu “O‘zini tanigan – Rabbini taniydi” degan hikmatning badiiy talqinidir.

4. Ramziy ma‘nosi. Bu 40 kunlik sayohat tasavvufdagi **“chilla”** (40 kunlik xilvat) muddatiga ishora qiladi. Solik bu muddat ichida dunyoviy bog‘liqliklardan uzilib, fano (yo‘qlik) darajasiga yetishi va so‘ngra Haq bilan baqo (abadiylik) topishi kerak.

Bu asarni anglanmasida:

Barcha qidirgan narsang o‘zingning ichingda. Sen butun olamni emas, o‘z ko‘nglingni sayohat qilishing kerak edi.

Bu g‘oya “O‘zini tanigan Rabbini taniydi” degan tasavvufiy aqidaga asoslangan. **[15. “Musibarnoma” haqida. vikipediya manba]**

Hadis ilmini adabiyot orqali talqin etish, musulmon bo‘lgan xalqni ma‘naviy tayanchiga aylantirishda hazrat Alisher navoiyni **“Arba‘in” (“Qirq hadis”)** kitobini misol qilish mumkin.

Albatta sharq adaiyotida bu an'ana mavjud bo'lgan. 40 ta hadis saralanib, uning mazmun mohiyati ruboyi vaznida yozilib talqin qilingan.

Ma'lumki, hadis (arab. – xabar, gap, yangilik) – Hazrati Payg'ambarimiz Muhammad (sav) aytgan so'zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to'g'risidagi rivoyat. Islom dinida Qur'ondan keyin 2-manba hisoblanadi. Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. Hadis 2 turga – Hadis i qudsiy (ma'nosi Alloh taoloniki, aytilishi Rasululloh tomonidan bo'lgan hadislar) va Hadisi nabaviyga bo'linadi. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo'linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif.

Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad (sav) o'z hadislarini aytardilar. Bu hadislarini Hazrati Payg'ambarimiz safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardilar.

Abdurahmon Jomiyning "Chihil hadis"ini Alisher Navoiy turkiyga tarjima qilgan. Shoirning niyati, asar muqaddimasida ta'kidlanganidek, "forsiydonlar idrok aylagan" qirq hadis mohiyatidan turkiyzabonlarni ham bahramand qilish edi. Bu hadislarini she'rga solishda esa barcha shoirlar ularning oson tushunilishini, yodda saqlanilishini ham nazarda tutganlar. [16.

Hadis. Xurshid Davron kutubxonasi sayti]

...Alisher Navoiy qalamiga mansub she'riyatning barchasi "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritilmagan. Ularning ayrimlari mustaqil asarlar sifatida taqdim etilgan. Ana shunday asarlardan biri "Arba'in"ni misol qilib keltirish mumkin.

"Arba'in" yoki "Arba'in hadis". "Qirq hadis" deb atalgan mazkur asarning yozilish tarixi to'g'risida Alisher Navoiyning o'zi asarning muqaddimasi hamda ustozi Abdurahmon Jomiy haqidagi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida shunday hikoya qiladi:

"Ul vaqtdakim (ya'ni 886-hijriy – 1481-melodiy yilda – B.V.) alar (ya'ni Abdurahmon Jomiy – B.V.) "Arba'in hadis"ni forsiy nazm bila tarjima qilib erdilar va ma'hud odat bila borcha ashobdin burunroq faqirg'a iltifot qilib, musavvadasin berdilar, chun mutolaasig'a mashg'ul bo'ldum..., hamul "Arba'in"ga turkicha til bila tarjima orzusi ko'ngulga tushti. Alardin ruxsat sharafiga musharraf bo'lg'ondin so'ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkiga kirdi" Demak, Alisher Navoiyning "Arba'in"i 886-hijriy – 1481-melodiy yilda yozilgan bo'lib, unda Rasululloh Muhammad (s.a.v.)ning qirqta saheh hadislarini she'riy tarzda-to'rt misradan iborat qit'a shaklida sharh qilingan. [17.186-b.]

"Qirq" raqamining magik sonlar sistemasidan o'rin olishi insoniyat o'tmishining qadimgi davrlaridagi mifologik qarashlariga borib taqaladi. "Qirq" so'zining qadimgi turk tilidagi ma'nolarini o'rgangan V. A. Gordlevskiyning fikricha, "qirq" soni aniq miqdorni emas, balki "ko'p" tushunchasini anglatgan. Qadimgi turklar "qirq" soni bilan marosimlarda qilinadigan qurbonliklar miqdorini ifodalashgan.

"Qirq" raqamiga e'tiqod qo'yish sabablari haqidagi mazkur mulohazani takrorlagan qoraqalpoq tilshunosi A. Bekbergenov "qadimgi davrlarda sanash qiyin bo'lgan predmetlar, diniy tushunchalar qirq soni bilan belgilangan" – deb hisoblaydi. [8. 38-39-b.]

Qirq raqamining folklor asarlarida qo'llanilishi haqida maxsus maqola yozgan turk olimi Y. Kerim ertak, afsona, maqol va iboralar tarkibidagi qirq sonining lingvopoetik xususiyatlarni keng tahlil qilgan. Turk folklori materiallariga tayangan olim "qirq" soni xalq tasavvurida omadli yoki omadsiz tushunchalaridan tashqari so'ngsizlik va ko'plikni ham bildiradi" – degan xulosaga keladi. [8.40-b.]

Ko'rib chiqilgan manbalar shundan dalolat beradiki, g'oyib olami mavjudligi, u yerdagi kuchlar inson tilagi, murodiga yetkazuvchi yoxud boshiga tashvish tushganda uni mushkulini hal qilib beradigan sirli madadkorlar sifatida tasavvur uyg'otadi. Bu inonch doston qahramonlariga ruhiy dalda, umid uyg'otishi ko'rsatilib berilgan.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Malla savdogar" dostonidagi qirq chilton timsoli xalqning qadimiy mifologik qarashlari, diniy-tasavvufiy tasavvurlari hamda folklor an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Dostonda qirq chiltonlar qahramonni himoya qiluvchi, unga ruhiy madad va ilohiy quvvat bag'ishlovchi g'oyibiy kuch sifatida talqin etilgan. Ayniqsa, Avazxonning kamolot bosqichlari bilan bog'liq lavhalarda qirq chilton obrazi epik qahramonning ilohiy homiylik ostida ekanini ifodalovchi muhim poetik vosita vazifasini bajaradi.

Shuningdek, maqolada keltirilgan manbalar "qirq" raqami Sharq va turkiy xalqlar tafakkurida ko'plik, mukammallik, sinov, poklanish va ma'naviy yetuklik ramzi sifatida keng qo'llanilganini tasdiqlaydi. "Chilla", "qirq hadis", "qirq qiz", "Ali bobo va qirq qaroqchi" kabi motivlar ham ushbu sonning xalq dunyoqarashidagi ramziy va estetik ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi.

Demak, "Malla savdogar" dostonidagi qirq chilton timsoli nafaqat mifologik obraz, balki xalqning ezgulik, homiylik va ilohiy madad haqidagi ko'p asrlik badiiy-estetik qarashlarini mujassamlashtirgan muhim ramziy timsol hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- [1]. Chilton.D.O 'rayeva, M.Otajonova, S.Nurullayeva "Mif va badiiy ijod" -2024-yil. 35-b.
- [2]. "Malla savdogar" dostoni (Nurali dostoni turkumi) Jo'ra eshmirza o'g'li varianti. – Toshkent, "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" nashriyoti 1989-yil. 296-b.
- [3]. Qirq soni. Qirq chilton. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildi. – Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyas" Davlat ilmiy nashiyoti.2008-yil. 302-b.
- [4]. Chilton. O'zbek tilini izohli lug'ati. – Toshkent "O'zbekiston milliy ensiklopediyas" Davlat ilmiy nashiyoti. 4-jildi, 2008-yil. 485-b.
- [5]. Gulmuradova Sobira Rustam qizi "Xush keldi" dostonidagi ba'zi etnografizmlarning izohi haqida" maqola// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423/ 2021, aprel, 408-b.
- [6]. Ibrohim Jovliyev. "Soqibulbul savdoyi emas" maqolasi. //ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-327-332/ (2021-yil, 328-329-b.)
- [7]. 40 soniga oid e'tiqodiy qarashlar. – vikpediya manba.
- [8]. Tuychiyeva (Musayeva) Ravshanoy "Adabiyotda sehrli raqamlar sirining ifodalanishi" – Farg'ona, 2013-yil. 38-40-b.
- [9]. Qirq qiz qaraqalpoq xalq eposi. - O'zbek Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyas" Davlat ilmiy nashiyoti. 93-b.
- [10]. Ali bobo va qirq qaroqchi ertagi.Arab xalq ertaklari. 5-9-sinf makatabdan tashqari o'qish. – Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2017-yil. 3-50-b.

- [11]. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun” asari. – Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2018-yil, 286-b.
- [12]. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” asari. – Toshkent. “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2018-yil. 44-b.
- [13]. Fariddin Attor “Mantiq ut-tayr” asari. Najmiddin Komilov “Fariduddin Attor ma’naviy merosi” maqolasi. – Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti. 4-5-b.
- [14]. Alisher Navoiyni “Arba’in” asari. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2000-yil. 9-10-b.
- [15]. “Musibarnoma” haqida. – vikpediya manba
- [16]. Hadis.Xurshid Davron kutubxonasi sayti 12.09.2016-yil.
- [17]. Nilufar Mamatqulova, “Alisher Navoiyning “Arba’in” asariga qisqacha sharh” maqolasi, SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601/ 186-b.